

УДК:378.09

IQTISODIY MINTAQA OLIY TA'LIM MUASSASALARINI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISH

*Shamiyev Jahongir**Shaharsozlik va landshaft arxitekturasi magistranti.
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti,
Samarqand, O'zbekiston.*

Аннотация. Мақоллада oliy ta'lim muassasalarini kompleks rivojlantirish va rekonstruksiyasiga qaratilgan bo'lib, bunda ilg'or memoriy va texnologik echimlar tahlili keltirilgan. Mamlakatimizda ta'lim muassasalarini qurish va zamonaviy tashkil etish tamoyillari, oliy o'quv yurtlari, institutlar, universitetlar va akademiyalar tarmog'ini yaratish sohasida yangi davrning boshlanishi, tizimdagi muammolarni aniqlash va e'tirof etish, ularning xususiyatlari ko'rib chiqildi. Ularning zamonaviy arxitektura va shaharsozlik nuqtai nazaridan tahlili yoritilgan.

Аннотация. В статье основное внимание уделяется комплексному развитию и реконструкции высших учебных заведений, что включает в себя анализ передовой памяти и технологических решений. Принципы построения и современной организации образовательных учреждений в нашей стране, начало новой эры в области создания сети высших учебных заведений, институтов, университетов и академий, выявление и признание проблем в системе, их характеристика считались. Освещен их анализ с точки зрения современной архитектуры и градостроительства.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim muassasalari, universitetlar, institutlar, rekonstruksiya, kompleks rivojlantirish, memoriy va texnologik echimlar, zamonaviy, shaharsozlik.

Ключевые слова: Вузы, университеты, институты, реконструкция, комплексная застройка, технологические решения, модерн, градостроительство.

O'zbekistonda so'nggi yillarda barcha sohalar kabi arxitektura va shaharsozlik, ob'ektlari, xususan oliy ta'lim muassasalari tarmog'ini rivojlantirishga ham alohida e'tibor berilmoqda. Shaharsozlik va oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan hukumat va davlat rahbarining farmon hamda qarorlari, qabul qilingan davlat dasturlari, ular ijrosini ta'minlash, tarmoqda islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilayotgan tadbirlar natijasida bunyodkorlik ko'lamlari tobora kengayib bormoqda.

Jumjadan, oxirgi 3-yilda oliy ta'lim muassasalari soni 65 tadan 117 taga etdi, 26 tadan ortiq xorijiy mamlakatlar ta'lim muassasalari va ularning filiallari faoliyat ko'rsatmoqda. Qabul o'rinlari 66 mingdan 181 mingtaga oshdi. Xorijiy mamlakatlar

bilan qo'shma ta'lim dasturi doirasida 64 ta yangi kasb bo'yich mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yildi.(3)

Biroq, oliy ta'lim muassasalari (institut, universitet, akademiya) tarmog'ini yaratish sohasidagi yangi davrning boshlanishi, tizimdagi muammolarni aniqlash, tan olish va ochiqlash, ayniqsa, ularni zamonaviy arxitektura va shaharsozlik nuqtai nazarida yechish oson kechayotgani yo'q. Tarixiy davrning qisqaligi va oliy ta'lim muassasalari tarmog'i rivojlanishining ulkan ko'lami nomukammal echimlarga olib kelmoqda, asosiylari: oliy ta'lim muassasalarini shaharlar rejali tuzilmasida tasodifiy joylashtirish, ularning alohida bo'linmalarining hududiy tarqoqligi, mavjud kapital binolarni moslashtirish, atrofida aholi binolarining gavjumligi tufayli ularning moddiy negizning kelajakda uyg'un birlikda rivojlantirish imkoniyatlarining yo'qligi va h.k.

Hech kinga sir emaski, ushbu qirqimda MHD va xorijiy shaharsozlik arxitekturasida OTM majmualarni tashkil etishda eng so'nggi me'morchilik yo'nalishlari, texnologik yutuqlarni namoyish etish hamda tarixiy-madaniy merosga hurmat ruhida tarbiyalashning yorqin va ifodali namunalari taqdim etilgan.

Zamonaviy sharoitda mamlakatimiz oliy ta'limi Boloniya jarayoniga yo'naltirilgan yangi ta'lim standartlariga o'tish va ta'lim faoliyatini moliyalashtirishni qisqarishiga ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiy inqiroz bilan asoslangan muammolar bilan bog'liq ko'plab qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Biroq, ta'lim jarayoni zamonaviy moddiy-texnik bazani, bo'lajak erkin fikrlovchi mutaxassisning ijodiy rivojlanishini rag'batlantiradigan munosib va qo'lay muhitni talab qilishini unutmashimiz kerak.

Ilg'or memoriy va texnologik echimlarsiz O'zbekiston oliy ta'limi raqobat bardoshligi deklaratsiya bo'lib qoladi. Mamlakatimizda ta'lim muassasalarini qurish va zamonaviy tashkil etishda, chunonchi Toshkent shahrida Prezident universiteti arxitekturasi va dizayni OTM lar barpo etishda o'ziga xos yutuqdir.[1]


Shu bilan birga, oliy ta'limi muassasalarini (institut, universitet, akademiya) loyihalash va qurishda to'planilgan tajribalarga qaramay, mavjud tarmoq ob'ektlarini rivojlantirish amaliyoti tahlili samarasi past iqtisodiy va funksional echimlarni qabul qilishga olib keluvchi va pirovard natijada ta'lim muassasalarining takomillashuviga to'sqinlik qiluvchi ko'pdan-ko'p kamchiliklarni ko'rsatdi.

Mamlakatimiz shaharlari (aholi maskanlari) rivojlanishining istiqbolli bosh rejalarida ayrim tashkil topgan OTM maqbullashtirish to'g'risidagi takliflar samarasiz tavsifga ega bo'lib, ular joylashuvi sxemalaridagi mavjud kamchiliklarni yanada chuqurlashtiradi (masalan, Samarqand Davlat Universiteti, Samarqand iqtisodiyot servis instituti, Samarqand Davlat arxitektura qurilish universiteti tarqoq joylashuvi saqlanmoqda). Kattaqo'rg'on, Urgut shaharlari (SamDU filiallari) va Narpay va Payariq tumanlari markazlaridan tashqaridagi qishloq aholi maskanlari bosh rejalarida oliy ta'lim muassasasi fakultetlarini (mavjud akademik litsey va kasb-hunar kollejar

moddiy negizida tashkil etilgan) samarali rekonstruksiyalash masalalari o‘zining aksini topmagan.

Ob’ektiv sabablardan tashqari, oliy ta’limi muassasalari moddiy negizini takomillashtirishda qurilish va nazariy ishlanmalar sohasidagi ijobiy tajribalarni qo‘llashning chegaralanganligidan farqli o‘laroq, butun mintaqa darajasida barcha oliy maktablarni optimal taraqqiy etishga imkon beruvchi, yaxlit majmua sifatida qarovchi, mintaqa iqtisodiy rayonlari xususiyatlarini, aholi manzillarining mavjud va istiqboldagi shakllarini, shaharlarning tuzulishi va yo‘naltiriganligini, ularda joylashgan ta’lim muassasalarini kompleks rivojlantirish ishlarini hisobga oluvchi metodologik dastur yo‘qligini asosiy sabab deb ta’kidlash lozim.[2]

Mavjud arxitektura-qurilish amaliyoti yo‘nalishlari, nazariy qarashlar, ilmiy tadqiqot institutlari ishlanmalarini tadbiq etish asosida hamda mualliflar tomonidan aniqlangan tamoyillarga tayanib, OTM kompleks rivojlantirish va rekonstruksiyalash tartibining umumiy metodologik sxemasini tuzish mumkin (1-sxema).



Rasm 1. Oliy ta’lim muassasalarini(OTM) majmuaviy taraqqiy ettirish metodologik sxemasi:

1-sxema.

har bir darajadagi ishlanma o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Mamlakatimiz iqtisodiy mintaqa hududlari miqyosida oliy ta’lim muassasalarini kompleks rivojlantirish loyihasining asosiy qismlaridan biri bo‘lib texnik-iqtisodiy

Maskur sxema zohiriy zanjirida oliy ta’lim muassasalarini kompleks rivojlantirish va rekonstruksiyalash uch tartibda: iqtisodiy hudud; shahar (aholi maskanlari guruhli tizimida) va alohida ta’lim muassasasi talabi darajasida ishlangan loyihalar turadi. Bu loyihalarning har biri belgilangan vazifaga asosan, ya’ni talab etilgan darajada ishlanishiga qarab, yakuniy loyiha bo‘lishi mumkin. Biroq, shuni ta’kidlash lozimki, mazkur loyihalarning har biri o‘z navbatida qaysi talab etilgan darajada ishlab chiqilishidan qat’iy nazar, doimo qolgan ikki loyiha tartibining ta’sir etishini yodda tutish lozim. Metodologik sxemada ushbu talab o‘z aksini aloqalar tuzilishida namoyon etadi.

Metodologik tartibning barcha elementlari o‘zaro ta’sirda bo‘ladi, biroq

asoslash hisoblanadi. Hozirgi paytda ushbu tadbirni O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Prognozlashtirish va makro iqtisodiy tadqiqotlar instituti zimmasiga yuklatilgan. Ular tomonidan oliy ta’lim muassasalari hozirgi holati tahlili va rivojlanishi istiqbollari qamragan texnik-iqtisodiy asoslash yo‘nalishida ishlamoqda.

Maskur tadbirda doirasida istiqbolda butun mamlakatimiz iqtisodiy mintaqalari, rayonlari hududlari (shu jumladan, Samarqand iqtisodiy rayoni bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, texnikum bitiruvchilarini oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish) miqyosida yuqori malakali mutaxassislar bo‘lgan ehtiyoj, hamda har bir ixtisoslik guruhlari qirqimida tayyorlanadigan mutaxassislar soni borasida ilmiy takliflar ishlab chiqilmoqda.[4]

Ushbu prognoz ko‘rsatkichlar har bir iqtisodiy rayon hududi oliy ta’limi muassasalarida u yoki bu ixtisoslik yo‘nalishlari bo‘yicha talabalar sonining maqbul ravishda ko‘paytirishga, oliy ta’limi muassasalarini ixtisoslashtirishga va pirovard natijada oliy ta’lim muassasalarini optimal joylashtirish va moddiy negizini rivojlantirishning shaharsozlik loyihalarini ishlab chiqishni yanada takomillashtirishga asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Biroq, mintaqa oliy ta’limi muassasalari moddiy negizining (shaharsozlik talablari jihatidan joylashuv sifati, o‘quv binolarining funksional yaroqliligi darajasi, ularning jismoniy eskirishi, ishlab-chiqarish ta’limini tashkil qilish va o‘quv-ilmiy laboratoriyalari, o‘quv-tajriba xo‘jaligi negizlariga egaligi, yirik sanoat va qishloq xo‘jalik yo‘nalishidagi qo‘shma korxonalar-klasterlar, erkin iqtisodiy zonalar tashkilotlari bilan o‘zaro aloqalari va h.k.) sifatli monitoringi–tahlili (platforma) yo‘qligi sababli, ishda talabalar soni umumiy “o‘shishning” har bir OTM kesimida amalga oshirilgan taqsimoti yetarli darajada mavhum, sub’ektiv tavsifga egadir.

Hozirda har bir OTM moddiy negizini hisob-kitob natijasida zaruriy hajmda rivojlantirish ko‘rsatkichlari maqbullikdan uzoq, mexanik tavsifga egadir.

Ushbu kamchilikni hisobga olib, metodologik sxemaga asosiy tarkibiy qismlardan biri sifatida mintaqa oliy ta’lim muassasalarining mavjud holatining miqdoriy (OTM talabalar, pedagoglar va muhandis-pedagoglar soni, ta’lim muassasasi moddiy negizi) va sifat (shaharsozlik jihatdan o‘rnatilishi, majmuaviylik darajasi, bino va inshootlarining manan va jismonan eskirishi va shu o‘rini.) jihatdan bahosi kabi tahlillari kiradi.

Hududiy darajada sxemaning ichki zanjiriga har bir OTM barcha jihatlarining sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlarini o‘zida mujassamlashtirgan pasportini ishlab chiqish bunday tahlilni amalga oshirish imkonini beradi.

Maskur ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish OTM rivojlantirish (talabalar soni va moddiy negizini) to‘g‘risidagi dastlabki taklifni berishga imkon beradi va bular o‘z navbatida keyingi tadqiqotlar davomida oydinlashtiriladi va qayta to‘g‘irlab turiladi.

Hududning oliy malakali kadrlariga bo‘lgan ehtiyojini aniqlashda va istiqbolda ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish va bitiruvchilar hajmini aniqlashda sub‘ektivlikdan qochish uchun, sxemaning ushbu qismiga navbatdagi elementi tariqasida hududda xalq-xo‘jaligining, fan va madaniyatning mavjud holati, rivojlanishi va istiqbolga yo‘naltirilganligi xususidagi ijtimoiy tadqiqotlarni o‘tkazish va shu asosda har bir ixtisosliklar bo‘yicha istiqboldagi talabalar sonini aniqlash mumkin bo‘ladi.

Ijtimoiy tadqiqotlar, texnik-iqtisodiy asoslash ishlanmalari va O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar institutining tavsiyalariga asosan istiqboldagi alohida ixtisosliklar bo‘yicha aniqlangan talabalar miqdori, EHM va matematik dasturlash algoritmlarini birlashtiruvchi maqbul ravishda rivojlantirish matematik modeli yordamida mintaqa oliy ta‘limi muassasalari qirqimida taqsimlanadi.

Ishning navbatdagi bosqichi bo‘lib, mintaqa oliy ta‘limi muassasalari modelini tuzish hisoblanadi. Bu aholi manzillari tizimining mavjud holati va uning istiqboldagi shakllari, oliy ta‘limi muassasalari negizi o‘rnashuvining tahlili, hamda iqtisodiy mintaq tizimida oliy ta‘limi muassasalari joylashuvining belgilangan tamoyillari (ularning: birlamchi-sohalar uchun ta‘lim va ilmiy tadqiqotlar bo‘yicha tayanch muassasalar ro‘lini bajaruvchi tarmoq oliy ta‘lim muassasalari kompleks flagman universitetlar, ilm-fan va innovatsion markaz funksiyasini bajaruvchi hududiy oliy ta‘lim muassasalari; sohalar uchun ta‘lim va ilmiy tadqiqotlar bo‘yicha tayanch muassasalar rolini bajaruvchi tarmoq oliy ta‘lim muassasalari) guruhlari asosida belgilanadi.

Shunday qilib, iqtisodiy mintaqa OTMlarini kompleks rivojlantirish va rekonstruksiyalash loyihasi darajasida ta‘lim muassasalari, alohida ixtisosliklar miqdoriy ko‘rsatkichlari bilan bir qotorda ularning sifat tavsiflari ham aniqlanadi va shu asosida mintaqa oliy ta‘limi muassasalari sistemasi tuzib chiqiladi.

Shaharsozlik tartiblariga muvofiq maqbullashtirishning yo‘naltiruvchi qismi bo‘lib, oliy ta‘limi muassasalari, uning o‘quv-tajriba va ilmiy-ishlab chiqarish negizi joylashuvining mavjud sxemasi hisoblanadi. Ushbu holat va mualliflar tomondan aniqlangan oliy ta‘limi muassasalari aholi maskanlari tuzulishida oqilona o‘rnashuvi asoslari (ekspert mezonlar tartibida) bilan solishtirma tahlili, har bir OTMning istiqbolda maqbul rivojlantirish strategiyasini (shakllarini) belgilaydi. Bular ta‘lim muassasasi hududi ichki zahirasidan foydalanish; tashqi hudud zahiralaridan foydalanish; ta‘lim muassasasining ayrim tarkibiy qismlarini fazoviy tarqoq holda joylashtirish ila rivojlantirish; yangi hududga to‘liq ko‘chib o‘tish orqali amalga oshirilishi mumkin. Yangi negizga ko‘chirilayotgan oliy ta‘lim muassasalarini ilmiy-

ishlab chiqarish va boshqa infratuzilma, OTMlar negizlari bilan o‘zaro maqbul kooperatsiyalashuvi, qo‘shiluvining imkoniyatlari aniqlanadi.

Rivojlantirishning tanlangan shakli OTM belgilangan muddatdagi va uzoq istiqboldagi davrlarda to‘laqonli rivojlanishini ta‘minlovchi imkoniyatlariga ega bo‘lishi kerak. Ta‘lim muassasasining rivojlanish jarayoni uzoq muddatligi–davomiyligi sababli istiqbolli rekonstruksiyalash loyihasini ishlab chiqishda, uning tom ma‘nodagi me‘moriy-rejaviy tuzulishini navbatma-navbat, o‘zgaruvchan shakllantirishni nazarda tutish lozim, bu umumiy rivojlanish sxemasiga muvofiq holda uning istalgan xususiy, galdagi rekonstruksiyasini amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Shunday qilib, taklif etilayotgan metodologik sxema, ilgari ma‘lum bo‘lgan amaliy uslublarni, nazariy qarashlarni va zamonaviy yo‘nalishlarni hamda, biz tomondan aniqlangan OTMlarini kompleks rivojlantirish va maqbul ravishda joylashuvini belgilovchi asosiy holatlarni barcha darajada (iqtisodiy rayon hududi, shahar(aholi maskanlari), alohida oliy ta‘limi muassasasi) bir tizimga keltiradi va pirovard natijada OTM tarmog‘i me‘moriy-rejaviy tuzulishini takomillashtirishning amaliy vazifalarini ro‘yobga chiqarish yo‘llarini ochib beradi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-mayida PQ-2936-son O‘zbekiston Respublikasi davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori.
2. Hoeger, K. Campus and the City: Urban Design for the Knowledge Society / K. Hoeger, K. Christiaanse. Zurich: Institute for the History and Theory of Architecture gta publishers, 2007. 328 p.
3. Neuman, D. J. Building type basics for College and University Facilities / D. J. Neuman. New Jersey: John Wiley & Sons, Inc, 2013. 416 p.
4. Gayrat, S., Salimjon, M. K., & Dilshod, Z. (2022). THE HEAT DOES NOT COVER THE ROOF OF RESIDENTIAL BUILDINGS INCREASE PROTECTION. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(2), 674-678.
5. Сафарова, И. А., & Махмадиерова, А. Н. (2018). ОСНОВЫ АРХИТЕКТУРНОЙ КОМПОЗИЦИИ. Актуальные научные исследования в современном мире, (4-12), 64-66.
6. Gayratovna, I. D., & Nigora, S. (2022). USE OF LOCAL RAW MATERIALS IN THE REPAIR OF PATTERNS AND DECORATIONS OF CENTRAL ASIAN ARCHITECTURAL MONUMENTS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(2), 679-683.